

## **BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHILARINING IJODIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING SHART-SHAROITLARI**

Bayturaeva Nasiba- JDPI katta o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinif o‘qituvchilarining ijodiy kompetentligini rivojlantirishga oid muammolar ko‘rib chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** komponentlar, kompetentlar, kategoriya, pedagogik tadqiqotlar, intellektual iste‘dod, kreativlik.

Bugungi kunda ta‘lim tarbiya tizimida har bir davlat kabi O‘zbekiston ham o‘ziga xos maqsad va vazifalarni o‘ziga xos maqsad va vazifalarni o‘z oldiga qo‘yiladi. Yurtimizda ta‘lim tarbiya tizimida olib borilayotgan islohotlar jarayonida boshlang‘ich ta‘lim sifatini oshirish boshlang‘ich sinif o‘qituvchilari oldiga bir qator vazifalar qo‘yadi.

Hozirgi kunda boshlang‘ich maktabda nostandart fikrlaydigan bitiruvchilarini o‘rta maktabdagi keyingi ta‘limga tayyorlash kabi o‘ta jiddiy muammo mavjud. Tadqiqotimiz doirasida amalga oshirilgan kuzatishlar ijodkor talabani faqat ijodiy yondashuvli munosabat bilan ishlaydigan o‘qituvchigina muvaffaqiyatli tarbiya qila oladi deb hisoblash imkonini beradi. O‘z navbatida, kattalar, bo‘lajak boshlang‘ich sinif o‘qituvchisining ijodiy kompetentligini rivojlantirish eng avvalo asoslangan va muayyan maqsadga yo‘naltirilgan mustaqil ta‘lim faoliyatida samarali amalga oshiriladi. Ijodiy kompetentlikni rivojlantirish zarurligini anglagan bo‘lajak boshlang‘ich sinif o‘qituvchisi foydalanishi mumkin bo‘lgan mustaqil ta‘lim shakllarining soni ko‘p emas: har 3 yilda bir marta tashkil qilinadigan malaka oshirishda mustaqil ishlash va maktabdagi o‘qituvchilarning metodik birlashmasi doirasida doimiy ilmiy-metodik ishlar. Kurslar orasidagi davrda malaka oshirish diskret xususiyatga bo‘lib, u ilmiy psixologik-pedagogik adabiyotlarni o‘rganish, ochiq darslar o‘tkazish, mahorat darslari va tajriba almashishni o‘z ichiga oladi. Mustaqil ta‘lim uzluksiz ta‘limning ajralmas qismi, o‘qituvchining ijodiy kasbiy o‘sishini ta‘minlovchi zamonaviy pedagogik yangiliklar, g‘oyalar, usullar va texnologiyalarni o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan faol, maqsadga muvofiq, tizimli, qadriyat-ma‘noli, ijodiy kasbiy faoliyat sifatida qaraladi. Ko‘pchilik tadqiqotchilar o‘qituvchining mustaqil ta‘limni muayyan kasbiy sifatlarni ongli ravishda takomillashtirish maqsadida o‘qituvchining o‘z ixtiyori bilan amalga oshiriladigan va boshqariladigan faoliyat deb tushunadilar. Ongli va asoslangan mustaqil ta‘lim faoliyati o‘qituvchining malakasini oshirish tizimidagi, bu jarayonning yaxlitligini ta‘minlaydigan bo‘g‘in hisoblanadi. «Mustaqil ta‘lim» tushunchasi sifat jihatidan yangi kategoriya bo‘lib, biroq uning tarkibiy qismi bo‘lmish atamalarining oddiy yig‘indisi emas. Bu tushunchaning ko‘p jihatlilik (tomonli) xususiyatini qayd etadi va unga kasbiy faoliyatda o‘z o‘rnini aniqlash, o‘zini anglash va o‘z imkoniyatlarini aniqlashning uzluksiz jarayoni deb qaraladi. Fanlararo atamalar lug‘atida, mustaqil ta‘lim - o‘qituvchining kasbiy ehtiyojlari va qiziqishlariga asoslangan, va zarur

kompetentliklarni o'zlashtirishga va ularning doimiy takomillashtirilishiga, shuningdek, o'qituvchi shaxsining kasbiy jihatdan ahamiyatli sifatlarining rivojlanishiga yo'naltirilgan o'quv faoliyatiga asoslangan individual ijodiy o'quv faoliyatining shakli sifatida «biror masala yoki muammoni mustaqil (ta'lim muassasidan tashqarida), davriy ravishda mutaxassis maslahatlari yoki bunaqa maslahatlarsiz tizimli o'rganish asosida quriladigan tizimli o'quv faoliyati» deb ifodalangan. Mustaqil ta'lim kasbiy kompetentlikni oshirishning har qanday boshqa shaklining ajralmas qismi va malaka oshirish tizimining samarali faoliyat ko'rsatishining zaruriy shartidir. Pedagogika qomusi (entsiklopediyasi) mustaqil ta'limning quyidagi ta'rifini taklif qiladi: «mustaqil ta'lim muayyan shaxsiy va (yoki) ijtimoiy ahamiyatga ega ta'limning bilim olishga bo'lgan qiziqishlarni, umumiy madaniy va kasbiy ehtiyojlarni qondirish va kasbiy malaka oshirish maqsadlariga erishishga qaratilgan maxsus tashkil qilingan, mustaqil (o'zi amalga oshiradigan) tizimli bilish faoliyatidir. U odatda ta'limning tizimli shakllari namunasiga asoslanadi, biroq uni sub'ektning o'zi tartibga soladi. Mustaqil ta'limga «har bir bosqichda vazifalarni belgilashdan (yakuniy) natijalarni umumlashtirishgacha o'z tashabbusi bilan, maqsadga yo'naltirilgan holda va tizimli ravishda ketma-ketlikda va mustaqil amalga oshiriladigan o'z-o'zini boshqaruvchi bilish faoliyati» deb qaraydi. Demak, o'qituvchi shaxsining to'laqonli rivojlanishi maqsadga yo'naltirilgan va asoslangan mustaqil ta'lim faoliyatida sodir bo'ladi.

Mustaqil ta'limning samaradorligi intellektual (aqliy) malakalarning (qobiliyatning) rivojlanganlik darajasiga, shuningdek, o'qituvchining o'quv faoliyatiga, bilimga bo'lgan oldindan o'rnatilgan ko'rsatmalari (munosabati), shuningdek, uning iroda va boshqa shaxsiy sifatlariga bog'liq. O'qituvchi mehnatining samaradorligi uning muvaffaqiyatli ijodiy mustaqil ta'lim faoliyati bilan korrelyatsiyada bo'ladi. Mustaqil ta'limning individual va guruhshakllari mavjud bo'lib, guruhshakllari hamkorlikdagi intellektual (aqliy) faoliyat olib borish ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga yordam beradi. Mustaqil ta'lim - o'qituvchining (ustozning) yordamisiz mustaqil mashg'ulotlar orqali bilim olishdir.

Bir vaqtning o'zida, ilmiy manbalarda «mustaqil ta'lim faoliyati» tushunchasini to'liq sharh berilmagan, bu esa uning talqini mualliflarning metodologik nuqtai nazarlarining erkinligiga olib keladi. Biz «mustaqil ta'lim olish faoliyati» tushunchasiga ta'rif berishga (ifodalashga) mavjud turli yondashuvlarni nazariy jihatdan o'rganib chiqdik. Olingan ma'lumotlar bizga mustaqil ta'lim olish faoliyatini bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining o'zining ijodiy o'zgarishining maqsadga yo'naltirilgan jarayoni sifatida, ijodiy faoliyatning o'ziga xos turi sifatida, pedagogning o'z shaxsiy ta'lim olish-rivojlanish makonini o'ziga xos tarzda o'zi tashkil qilish sifatida qarashga imkon beradi; va bu makonda pedagog o'zining kasbiy jihatdan shakllanishining sub'ekti sifatida faoliyat yuritadi va bu shakllanish va rivojlanish jarayonida mazmunni o'zlashtirish, zamonaviy ta'lim texnologiyalarini qabul qilish, individual-ijodiy kasbiy «uslubning», muallifga xos pedagogik tizim ishlab chiqarilishi amalga oshadi.

Xulosa qilib aytganda, shunday qilib, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining ijodiy kompetentligini rivojlantirishda o'qituvchining yoshi jiddiy ahamiyatga ega bo'lmaydi, bu yerda o'qituvchining shaxsiy, fiziologik xususiyatlarini va o'qitish tajribasi; ijodiy mustaqil ta'lim faoliyatida ishtirok etish motivatsiyasi; bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy kompetentligining ijodiy tarkibiy qismini pedagogik qadriyatlar sifatida anglash; ma'lumotlarni uzluksiz to'ldirish va ijodiy (ma'no, mazmun jihatdan) o'zgartirishga tayyorlik; pedagogik tajribani maqsadga muvofiq aks ettirish va muayyan (alohida olingan) o'qituvchi rivojlanishining yosh va individual xususiyatlariga mos keladigan mustaqil ta'lim faoliyati uchun zarur pedagogik shart-sharoitlarni yarata olish qobiliyatlarini hisobga olish zarur.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. SH.SHaripov, N.Muslimov, M.Ismoilova. "Kasbiy ta'lim pedagogikasi". Metodik qo'llanma.-T.2005 y
2. S.Heranova Maryam. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ma'naviyat targ'ibotiga tayyorlashda axborot texnologiyalaridan foydalanish. 793-795b. O'zbekistonda ilmiy-amaliy tadqiqotlar konferentsiya materiallari №18.31 iyul Tashkent. 2020y.. "O'zbekistonda ilmiy-amaliy tadqiqotlar" mavzusidagi Respublika 18-ko'p tarmoqli ilmiy masofaviy onlayn konferentsiya materiallari 10-qism.
3. N. Bayturaeva. Developing the creative competence of future primary school teacher as a social problem. International Virtual Conference On Innovative Thoughts, Research Ideas and Inventions in Sciences Hosted from Newyork, USA <http://euroasiainconference.com> January 20th 2021.
4. Bayturayeva, N. (2021). MUSTAQIL TA'LIM FAOLIYATIDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHISINING IJODIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA AKMEOLOGIK YONDOSHUV. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, (3). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/3480>
5. Bayturaeva, N. (2021). The Role of Self-Study in the Comprehensive Development of the Future Primary School Teacher. *International Journal on Integrated Education*, 4(12), 228-229.
6. Bayturayeva, N. (2021). BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING IJODIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA MUSTAQIL TA'LIM FAOLIYATI. *Scientific progress*, 1(6), 1073-1077.
7. Байтураева, Н. (2021). Акмеологический подход к развитию творческой компетентности учителей начальной школы в самостоятельном образовании. *Общество и инновации*, 2(5/S), 254-258.
8. Bayturayeva, N. (2021). MUSTAQIL TA'LIM FAOLIYATIDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHISINING IJODIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *Таълим ва инновацион тадқиқотлар*, (4), 90-95.

- 9.O'ralova, O. (2021). АБУ НАСР ФОРОБИЙ ИЛМИЙ-МАЪРИФИЙ МЕРОСИНИНГ АСОСИЙ ЙЎНАЛИШЛАРИ. *Журнал Педагогикаси ва психологияси в современном образовании*, (1).
- 10.O'ralova, O. (2022). ОИЛА–РУҲИЙ-МАЪНАВИЙ ҚУВВАТ МАНЗИЛИ. *Журнал Педагогикаси ва психологияси в современном образовании*, 2(5).
- 11.O'ralova, O. (2021). АБУ НАСР ФОРОБИЙ МАЪНАВИЙ-АХЛОҚИЙ ТАРБИЯ ХАҚИДА. *Журнал Педагогикаси ва психологияси в современном образовании*, (3).
- 12.O'ralova, O. (2021). Абу Наср Фаробий илмий-ижодий меросида манавий–ахлоқий ғоялар талқини.. *Журнал Педагогикаси ва психологияси в современном образовании*, (1).
- 13.O'ralova, O. (2024). ABU NASR FOROBIYNING MEROSINI O'RGANISH. *Журнал Педагогикаси ва психологияси в современном образовании*, 4(2), 125-129. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9796>
- 14.Байтураева, Н. (2021). Mustaqil ta'lim faoliyatida boshlang'ich sinf o'qituvchisining ijodiy kompetentligini rivojlantirishda akmeologik yondashuv. *Общество и инновации*, 2(5/S), 254-258.